



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI

**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**
XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI
1-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
1-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.



2-SHO'BA. RAQAMLI IQTISODIYOT VA TURIZM

TURIZM BOZORIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

i.f.n. Muxtarov Botir Abdusattarovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

botir.muxtarov.1964@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ishda turizm bozorida ichki turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, milliy turistik mahsulotlarni rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilma va transport tizimini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ichki sayyohlik oqimini ko'paytirish, mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali hududiy turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Global va milliy tajribalarni solishtirish asosida ichki turizm bozorini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, turizm bozori, infratuzilma rivoji, milliy turistik mahsulotlar, xizmatlar sifati, mahalliy tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, marketing strategiyalari, hududiy turizm salohiyati, iqtisodiy rivojlanish, barqaror turizm, turizm siyosati, investitsiyalar, innovatsion yondashuvlar, xalqaro tajriba.

Jahon iqtisodiyotida keyingi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish, shuningdek yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Sayohat va turizm Kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra "Jahon turizm industriyasi global YAIMning taxminan **10%** ni tashkil etadi va bu esa 2024 yilda taxminan **\$10.9 trillion**ga teng edi, shu bilan birga **357 million** kishi uchun ish o'rni yaratilgan[1].

O'zbekistonda ham turizm sohasi oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. **Jumladan**, keyingi yillarda mamlakatimizda turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga etdi, bu sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. O'tgan 8 yilda mahalliy va xorijiy investorlar 6,5 milliard dollar sarmoya kiritib, 130 ming mehmonxona o'rni yaratdi, bu yil ularning soni yana 30 mingga ko'paytirish rejalashtirilgan.

O'tgan yili xorijiy sayyohlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o'tdi, bu borada Evropaning ba'zi bir davlatlari tahlil qilinganda sayyohlik masadida Italiyadan 36 mingga yaqin turistlar, Germaniyadan 31 dan ortiq, CHexiyadan 24 900, Ispaniyadan 22 mingga yaqin, Fransiyadan 21 000 ga yaqin, SHveysariyadan esa 4 500 ga yaqin sayyohlar tashrif buyurganlar. So'nggi yillarda ichki turizmga e'tibor tufayli mahalliy sayyohlar soni 23 millionga etdi (2017 yilda 5 mln. edi).

Hozirgi zamonaviy raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruvni egallash turistik korxonalar xodimlarni ishga olish xarajatlarini deyarli 50 % ga, o'qitish xarajatlarini esa 29% ga qisqartirishga erishayotgani ushbu sohadagi innovatsiyalarning samarador ekanligini ko'rsatib turibdi. SHuningdek, sohani raqamlashtirish, xalqaro mijozlar bilan samarali ishlash imkoniyatini oshirish, optimallashtirish, kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni mukammallash egallash tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

Iqtisodchi olim B.N.Navruz-Zodaning fikricha[2] “ Jahon innovatsion tizimidagi amerikacha, evropacha va osiyocha innovatsion modellarini o'rganib, ularning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda, biz innovatsion barqaror rivojlanishning mualliflik modelini tavsiya etamiz. Bunday innovatsion modelning metodologik asosini ikkita quyidagi nazariya tashkil etadi:

Birinchidan, yangi g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amalga oshirish natijasida yangi mahsulot turlari, yangi xizmatlarni ko'rsatish, yangi texnologik jarayonlarni, yangi marketing usullarini hamda biznesni yuritishning yangi uslublarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan **innovatsiyalar nazariyasi**;

Ikkinchidan, har bir boshqaruv qarorining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik samarasini hisobga olgan holda qabul qilinishi, kelgusi avlodga zarar etkazmasdan hozirda hayot kechirayotgan odamlarga munosib turmush darajasini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni iflos qilmaslik maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan **barqaror rivojlanish nazariyasi**”.

M.Q.Pardaevning fikricha[3] xizmatlar sohasining tabiati bo'lib, klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik, kon'yunkturalik, bo'g'inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog'langan kabi xususiyatlarga ega bozordir. Mazkur bozorda xalqaro turizm tarmog'iga dunyo bo'ylab yaratilayotgan har o'n ikkinchi yangi ish o'rni to'g'ri kelib, keyingi o'n yillikda dunyo miqyosida 120 million kishining (ishsiz aholining 3,5 foizi) ushbu tarmoqda ish bilan ta'minlanishi kutilmoqda. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya oqimini ta'minlash uchun muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Mazkur sohada o'ziga xos maktab yaratgan O.Xamidovning ko'rsatishicha[4] “Turizm murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u ekologik barqaror rivojlanish yo'nalishi sifatida o'zaro bog'liq tarmoqlar majmuasi, bir vaqtning o'zida faoliyat turi, rekreatsiya shakli, milliy iqtisodiyot tarmog'i va bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish usuli bo'lib, ko'plab yangi ish o'rinlari, qo'shimcha daromadlar yaratish va tadbirkorlikni va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbai sifatida, boy va xilmaxil tabiat, madaniy-tarixiy ob'ektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilaydi.

MDH olimlaridan I.Endjeychik fikricha[5] turizmning iqtisodiy mohiyati ko'p jihatdan turizmga keng qamrovli bo'lgan multiplikativ samara ta'siriga asoslanadi. Multiplikativ samara ta'siri natijasida turizmga bitta ish o'rni turizm bilan hamkorlik tizimi orqali bog'langan boshqa soha va sektorlarida ettita yangi ish o'rnini yaratadi. SHu xususiyati sababli, turizm O'zbekistonning ko'pgina, ayniqsa katta rekreatsion imkoniyatlari mavjud mintaqalari rivojlanishi uchun sifat jihatidan yangi davr

boshlanishiga turtki bo'lishi mumkinki, turizm hisobiga nafaqat o'zlarining rivojlanish tezligini oshirishi balki, yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini ham hal etishi mumkin.

Jahonning etakchi turistik davlatlarida amalga oshirilayotgan turizmga ilg'or texnologiyalardan foydalanish tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, har bir mamlakat o'zining madaniy, iqtisodiy va texnologik xususiyatlariga mos ravishda unikal modellarni ishlab chiqilgan, masalan, Evropa Ittifoqining Eko-texnologik harakatlar modeli, AQSHda "Disney" tarmoqlar tizimi, Yaponiyaning o'ziga xos turizm xizmatlari va Kayzen tizimi, Janbiy Koreyaning turizmni raqamlashtirish texnologiyasi va boshqalar.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, mamlakatimizda xam hududlarda turizmning rivojlanishi, turistik kompleksning bir xil emasligi va xizmatlar ko'rsatish sifatida raqamlashtirish, davlatni qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish va iqtisodiy mexanizmni tartibga solishga turlicha yondashishga olib keladi. Turizmning samaradorligi dam olish va madaniy ob'ektlar mavjud hududlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiradigan va mintaqalarda turizmni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadigan muhim omil hisoblanadi. SHu bilan birga, boshqaruv tizimining hamda davlat tomonidan qo'llab - quvvatlashning nomukammalligi turizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turizmni takomillashtirishning asosiy maqsadi – noyob turistik va rekreatsion resurslardan, ichki urf-odatlardan, turizm sohasi tadqiqotlarining ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda hamda asosiy vazifalar echimini ta'minlash asosida zamonaviy va raqobatdosh raqamlashtirilgan turistik kompleksni yaratishdir.

Bundan tashqari sifatli turistik xizmatlar va aholining dam olishlari uchun shart-sharoit yaratish, iqtisodiyotda turistik kompleksning hissasini oshirish va tabiiy resurslar va kurortlarni, ilmiy, madaniy va tarixiy merosni saqlash va ulardan oqilona foydalanishda yangi turistik marshrutlar tashkil etish tizimi alohida tadqiq etilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2024). Economic Impact of Travel & Tourism 2024 Annual Research. <https://wttc.org>
2. B.N.Navruz-Zoda. Turizmning barqaror innovatsion rivojlanish modeli Servis ilmiy-amaliy jurnal 2019 yil 3-maxsus son, 68-B.
3. Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Toshkent, IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 20-23 b.
4. Xamidov, O. Turizmning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – B. 45.
5. Енджейчик И.Современный туристский бизнес. Москва. 2003. Финансы и статистика. -105 с.